

## NUTQ NUQSONLARINI TUZILISH XUSUSIYATIGA KO'RA O'ZARO FARQLASH

**Dilmurodova Ferangiz Umid qiz**

**Shodiyeva Iroda Kenja qizi**

**Shaydamova Munira Ergash qizi**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti Maxsus  
pedagogika :Logopediya yo'nalishi 3-bosqich talabalari*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada nutq buzilishlari, shu buzilishlarni bartaraf etishning samarali usullari, logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli hamda bolalar nutqining rivojlanishi va bosqichlari haqida ma'lumot berilgan

**Kalit so'zlar:** Disfoniya, afoniya, logonevroz, burun nutqi, dizartriya, taxifraziya, intonatsiya, ohang, bradifraziya.

**Kirish.** Nutq buzilishlarining shakl va turlari haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurlar shu buzilishlarni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish uchun dastlabki shart hisoblanadi. Tadqiqotchilar logopediya fani taraqqiyotining barcha tarixiy davrida ko'pgina turlarga ega bo'lgan nutq buzilishlarini tasniflashga harakat qildilar. Lekin hozirgi davrda ham tasniflash muammosi nafaqat logopediyaning, balki nutqiy faoliyat buzilishlarini o'rganadigan boshqa ilmiy fanlarning ham muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday fanlarga quyidagilarni kiritish mumkin: neyrofiziologiya, tibbiyot, patopsixologiya va neyropsixologiya, maxsus psixologiya va pedagogikaning tarmoqlari: oligofrenopedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika. Nutq buzilishlarini tasniflashning murakkabligi ayrim sabablar bilan bog'langandir, ular orasida nutq mexanizmining o'zi yetarlicha o'rganilmaganligi, shuningdek, tadqiqotchilarning tamoyillar masalasidagi nuqtayi nazarlarining mos kelmasligi yetakchi o'rinni egallaydi, tasniflash esa yuqoridagi tamoyillar asosiga qurilishi lozim. Logopediya fani o'zining dastlabki shakllanish bosqichlarida o'z tasnifiga ega emas va hatto uni ishlab chiqish zarurligi masalasini ham qo'ymagan edi. Zero, u Yevropa tibbiyotining nutq buzilishlarini o'rganish borasida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarining katta ta'siri ostida bo'lib, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida to'plangan tasniflashlarga tayanar edi. A. Kussmaul tasnifi dastlabki tasniflardan biri bo'lib (1877), u nutqbuzilishlarining turlari haqidagi awal yig'ilgan tasavvurlarni tanqid ostiga oldi; ularni sistemalashtirdi, atamalarini tartibga keltirdi. U uni keyinchalik klinik deb atay boshlashdi) XX asrning birinchi choragidagi chet ellik va rus tadqiqotchilari: V. Oltushevskiy, G. Gutsman, E. Freshels, S. M. Dobrogayev va boshqalarning qator ishlariga asos qilib olindi. Kattalar va bolalardagi

nutqning buzilishi bolalik davrida aqliy funktsiyaning ayrim tarkibiy qismlarining "noto'g'ri shakllanishi" yoki yetuk yoshda inson asab tizimiga patogen ta'siri tufayli allaqachon shakllangan nutq tizimining ishlashining buzilishi natijasi bo'lishi mumkin. Disfunktsiyaning paydo bo'lish vaqtiga, uning tabiati va intensivligiga qarab, nutq buzilishining belgilari va kechishiga qarab o'zgaradi. Quyida sog'liqni saqlash va ta'lim tizimida qo'llaniladigan nutq buzilishining ikkita eng keng tarqalgan tasnifi keltirilgan:

#### 1. Psixologik-pedagogik tasnifi Aloqa vositalarini buzilishi

- Nutqning fonetik-fonemik rivojlanmaganligi (FFNR)

- nutqning to'liq rivojlanganligi (NTR), alaliya, afaziya Aloqa vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish

- Duduqlanish

2. Tibbiy-pedagogik tasnif logopediya fani uchun a'nanaviy bo'lgan tibbiyot bilan hamkorlikka tayanadi, lekin tibbiy tasnifdan farqli o'laroq, unda ajraladigan nutq buzilishlarining turlari kasallik shakllariga bog'lanmaydi. Og'zaki nutqning buzilishi •Disfoniya (afoniya) — tovush apparatining patologik o'zgarishlari oqibatida fonatsiyaning yo 'q bo'lishi yoki zaiflashuvi. Ma 'nodoshlari: tovushning buzilishi, fonatsiyaning buzilishi, fonotor buzilishlar, vakal buzilishlar.

- Bradilaliya — nutqning patologik sekinlashgan sur'ati. Ma 'nodoshi:bradifraziya. Artikular nutq dasturining sekinlashgan ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi, markaziy bog'langan va o'z tabiatiga ko'ra organik yoki funksional bo'lishi mumkin. •Taxilaliya — nutqning patologik tezlashgan sur'ati. Ma 'nodoshi: taxifraziya. Artikular nutq dasturining tezlashgan holda amalga oshirilishida namoyon bo'ladi, o 'z tabiatiga ko'ra, markaziy bog'langan, organik yoki funksional hisoblanadi. •Duduqlanish — nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur'at-ohangning buzilishidir. Ma'nodoshi: logonevroz. Markaziy bog'langan bo'ladi, funksional yoki organik ko'rinishga ega bo'lib, ko'proq bola nutqining rivojlanishida paydo bo'ladi.

- Dislaliya –inntelekt va eshitish qobiliyating saqlanganligida tovush talaffuzining buzilishi

- Rinolaliya (burun nutqi) - nutq analizatorining periferik qismidagi anatomik nuqson tufayli tovush talaffuzi va ovoz tembrining buzilishi. <sup>1</sup>

- Dizartriya - nutq funktsiyasini ta'minlaydigan mushaklarning etarli darajada innervatsiyasining buzilishi natijasida nutqning ovoqli talaffuzi va prozodik (intonatsiya, ohang, ritm, balandlik) tomonining buzilishi. Dizartriya - nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Dizartriya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis — bo'lak , arthon — biriktirish degan ma'noni bildiradi. Dizartriya—bu markaziy xarakterdagi organik n u tq buzilishi hisoblanadi.

- Alaliya — bolaning ona qornida yoki dastlabki rivojlanish bosqichida nutq shakllanishiga qadar bosh miya qobig'i nutq doirasining organik jarohatlanishi oqibatida uzluksiz rivojlanmay qolishdir. "Alaliya" atamasi (grekcha a — yo'q, lotincha lalio — nutq) tarjimasi nutqning yo'qligi, nutqsizlik holati — nutq buzilishlariga doir adabiyotlarda qadim zamonlardan beri kuzatiladi. Maxsus adabiyotlarda "alaliya" atamasidan tashqari, shu nutq nuqsonini anglatuvchi quyidagi atamalardan foydalanganlar: "Tug'ma afaziya", "Ontogenetik afaziya", "Rivojlanish afaziyasi", "Disfaziya",

---

<sup>1</sup> www.interonconf.com

"Nutqiy rivojlanishi sustlashuvi", "Nutqning konstitutsional orqada qolishi", "Tilni egallashdagi kamchiliklar" va h.k.

• Afaziya — bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog'liq holda nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi. Ma'nodoshlari: nutqning buzilishi, yo'qolishi. Bola nutqining bosh miya jarohatlanishi, neyroinfeksiya yoki miya shishi natijasida yo'qolishi nutqning shakllanib bo'lganidan keyin sodir bo'lsa, unda bolalar afaziyasi deb nomlanadi. Agar buzilish kattaroq yoshda yuz bergan bo'lsa, unda afaziya haqida fikr yuritiladi. Yozma nutqning buzilishi. Uning qaysi turi buzilganiga qarab ikki guruhga ajratiladi. Mahsuldor tur buzilganida yozuvning zaiflashuvi, retseptli yozma faoliyat buzilganida — o'qishning zaiflashuvi qayt qilinadi

1. Disleksiya — o'qish jarayonining qisman o'ziga xos buzilishi.

2. Disgrafiya — yozish jarayonining qisman o'ziga xos ravishda buzilishi. Harfning optik-fazoviy obrazining turg'un emasligida, harflarning aralashib ketishi yoki tushib qolishida, so'zning so'z-bo'g'in tarkibini bayon qilish va gap qurilishida namoyon bo'ladi. O'qitish davomida yozish jarayoni shakllanmagan hollarida agrafiya haqida fikr yuritiladi. Shunday qilib, logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli ajratiladi, ulardan 9 tasi og'zaki nutq natijasi va ishlab chiqarishning turli jarayonlardagi buzilishlarini tashkil etadi. Qolgan 2 ta shakl esa yozma nutqning buzilish jarayoni bilan bog'liq holda ajratiladigan buzilishlarni o'z ichiga oladi. Og'zaki nutqning buzilishlari orasida disfoniya (afoniya), taxilaliya, bradilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya (anartriya), alaliya, afaziya ajratiladi; yozma nutqning buzilishlari orasida disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) ajratiladi. Keltirilgan tasniflarga nutq buzilishlarining faqat shunday shakllari kiritilganki, ular logopedik adabiyotda ko'rsatilgan va ularga tatbiqan metodikalar ishlab chiqilgan. Shu munosabat bilan shuni aytib o'tish kerakki, qator hollarda bir shaklga taalluqli nutq buzilishlari varianti emas, balki alohida buzilishni o'zida namoyon qiladi<sup>2</sup>. Masalan, dislaliyaga, bir tomondan, artikular-fonetik buzilishlar, ya'ni nutqning nutq normasi darajasiga taalluqli xususiy ovoz ishlab chiqarishdagi nuqsonlar, boshqa tomondan esa operatsiyalarning shakllanmagani bilan bog'liq holdagi tovushlar tanlovini amalga oshiradigan va bayon qilishning (tilli) turlanish darajasiga taalluqli fonetik buzilishlar kiradi.

Keltirilgan tasnifning izchil emasligi nutq (psixologik va fiziologik) mexanizmlari haqidagi bilimlar va logopediyadagi yangi tadqiqodlarning o'sishi bilan bog'liq holda fanning zamonaviy taraqqiyoti davrida ayniqsa, sezilarli tus oldi. Fan taraqqiyotidagi har bir yangi bilimlar avvalgi tasavvurga o'zgartirishlar kiritilishini talab etadi. Shuning uchun nutq buzilishlari masalalarini bundan keyingi ishlab chiqarish logopediyasining dolzarb vazifasi bo'lib qoladi. Psixologik-pedagogik tasnif tibbiy tasniflarni pedagogik jarayonda qo'llanish nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil qilish natijasida vujudga keldi (bu uslub logopedik ta'sir etish deyiladi). Bunday tahlil logopediyani nutqiy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashga jalb etish bilan bog'liq holda juda muhim bo'ldi. Yuqori da bayon qilingan tasnif logopediya nazariyasining hozirgi ahvolini o'zida aks ettiradi. Ular o'rtasida qarama-qarshiliklar yo'q, ular bir-birini to'ldiradi. Mazkur darslikda har ikkala variant ham uning tuzilish asosi sifatida qo'llanadi. Logopediyaning vazifasi — nutq buzilishlarini tartibga solishni takomillashtirishdir. Keltirilgan tasniflar, ko'proq bolalarni nutqning birlamchi rivojlanmay qolishiga, ya'ni eshitish qobiliyati va aqliy jihati normal holdagi nutq buzilishlariga nisbatan ishlab chiqilgan. Darvoqe, bu toifadagi bolalar o'z tarkibiga ko'ra bir xil emas: zero bunday darajaga ruhiy rivojlanishi to'xtab qolgan, ko'rish qobiliyati va tayanch harakati apparati buzilgan bolalar ham taalluqli. Logopediyada ishlab chiqilgan tasnifni yuqorida ko'rsatib o'tilgan toifadagi nutqi buzilgan bolalarga

---

<sup>2</sup> www.interonconf.com

nisbatan qo'llash mumkinmi yoki yangi izlanishlar zarurmi, degan masalani hal etish muhimdir. Shuningdek, aqliy qoloq va zaif eshitadigan bolalarning nutq buzilishlarini tartibga solish haqidagi masala ham juda muhim va murakkab masaladir.

Nutq va til kompetensiyasi haqidagi fikrlar, muloqotning keng nutq amaliyoti ekanligi, turli janrdagi adabiyotlarni o'qishning katta hajmi bilan belgilanishi va kommunikativ kompetensiya, nutq kompetensiyasining diskursiv xususiyatga egaligi hamda talabalar og'zaki xulq-atvorining aks ettirishi N.N.Romanova tomonidan tahlil qilingan.

So'zdan foydalanishning to'g'riligi muloqotga kirishuvchilarning nutq mavzusini qay darajada bilishi, qanchalik bilimdon ekanligi, mantiqiy fikrlay olishi, til konunlari va uning qoidalarini bilishiga bog'liq. Ushbu maqolani yozish jarayonida nutqiy akt, nutqning paydo bo'lishi, rivojlanishi, bolalar nutqida nutqiy kompetensiyaning shakllanishiga oid materiallarni o'rganish mobaynida shunday xulosaga keldik. Nutq jarayon va natija bo'lish bilan birgalikda, nutq matnlari, og'zaki va yozma, kitoblar, hikoyalar, qo'shiqlar kabi turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Nutq moddiy bo'lib, uni hislar idrok etadi, bu faqat nutqda o'zini namoyon qiladigan tilni qo'llash jarayonida amalga oshadi.

Oila – bu bolalarning nutqi shakllanishida asosiy maskan hisoblanadi va bu dargohda bola kamol topib, voyaga yetadi. Barchamizga ma'lumki, farzandlarimiz uch yoshga to'lguncha nutqiy tarbiya asoslarini oila a'zolaridan o'rganadilar va bu jarayon nutqni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi bilan alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda, bolalarning chaqaloqlik davrlaridan boshlab nutqning rivojlanishiga oid ayrim fikrlarni keltiramiz.

Chaqaloqlar ikki oylik bo'lganlaridan so'ng yig'lash, qo'llarini qimirlatish va turli shakldagi tovushlarni chiqarishni boshlaydilar. Chaqaloqlar 3-4 oyga to'lganlarida o'taonasi, birga yashovchi va boshqa insonlar bilan ko'z hamda tabassum orqali aloqa qilishni boshlaydilar va o'sha odamning yuz ifodasini kuzatadilar. Agar chaqaloqqa nisbatan erkalatuvchi so'zlar bilan murojat qilinsa, ularning yuz ifodasida kulgu alomatlari seziladi.

Aksincha, do'q-po'pisaga o'xshash so'zlar qo'llansa, (ha, seni qara-yu, yig'lamasdan birpas jim yotsang bo'lmaydimi) ularning yuzlarida yig'i alomatlari bilina boshlaydi, lablarini bujmaytirib yig'lashni boshlaydilar. Asta-sekinlik bilan shu davrdan boshlab quvnoq va kulgiga o'xshash tovushlarni chiqara boshlaydilar. Taxminan, 5 oylikdan boshlab tovush hosil bo'lishini va artikulyatsiya harakatlarini boshqarish qobiliyati rivojlanadi. Ovozlar bilan qiyqiriq tovushlar chiqarishni boshlaydilar.<sup>3</sup>

Chaqaloqlar 6 oylik bo'lganlaridan boshlab, atrofdagilarga ko'proq e'tibor berishni boshlaydilar va asta-sekin kattalar e'tiborini o'zlariga jalb qilish uchun imo-ishoralar, qarashlar, tovushlardan foydalanadilar. Ular 10 oyliklardan boshlab inson nutq tovushlariga o'xshash tovushlarni baqiriqlar, chinqiriqlar orqali chiqara boshlaydilar. Ular ilk so'zlarni 9- 12 oyliklarida ayta boshlaydilar, bir yoshga to'lganlarida esa bir necha so'zlarni va qisqa iboralarni tushunishni boshlaydilar. Shu yoshdan boshlab kichkintoylar oddiy ko'rsatmalarni tushunishlari va ularga amal qilishlari mumkin. Masalan, yoshini so'rasalar, ko'rsatkich barmog'ini ko'rsatish orqali 1 yoshga to'lganini qo'l harakatida ifodalaydilar, shu bilan birga, ular uchun sevimli bo'lgan uy hayvonlaridan tovuqlar, jo'jalarning sonini so'ralganda ham, barmoqlari bilan ifodalaydilar. Yaqin insonlari (onasi, buvisi, opasi, akasi) tomonidan salomlashish o'rgatilganda, garchi ular to'liq gapira olmasalar-da, o'ng qo'lini uzatib ko'rishishni o'rganadilar yoki, aksincha, xayrlashganda qo'llarini, asosan, barmoqlarini silkitish orqali xayrlashishni ifodalovchi xarakatni ko'rsatadilar Ularning og'zaki nutqi

---

<sup>3</sup> 2793. E.G'oziyev. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi" Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 309 b.

bir yoshda noaniq bo‘lib, nutq tovushlarining deyarli barchasini o‘z ichiga oladi. So‘z boyligi doimiy ravishda oshib boradi. Bu yoshdagi chaqaloqlar o‘rtasida ham farqlar mavjud bo‘lib, ba‘zilari ko‘plab so‘zlarni gapirishni boshlaydilar, boshqalari esa hali ham dastlabki so‘zlarni aytishga qiynalayotgan bo‘ladilar.

Masalan, 1 yoshlik Foziljon “dada”, “amma”, “choy” so‘zlarini bemalol ayta oladi, 1 yoshlik Abror esa yuqoridagi so‘zlarni to‘liq ayta olmaydi. “dada-dad, dad”, “choy-umma”.

Bola 1-1,5 yoshga yetganda, endi yura boshlaganda, aka-opasini, ota-onasini odiga kelib “meni ko‘taring” so‘zini ayta olmay, “xo‘ppa” deb ikkala qo‘lini yuqoriga ko‘tarib, qo‘l xarakati orqali fikrini ifodalashga urinadi.

2 yoshli bolalar oddiy ko‘rsatmalarni tushuna oladilar. Ular o‘z ismlarini ayta oladilar va ikki-uchta so‘zlardan iborat jumladan foydalana oladilar.

3 yoshli bolalar oddiy hikoyalarni, takliflar, ko‘rsatmalarni tushunishlari mumkin.

So‘roq gaplar, buyruqlar va inkor jumladan foydalanadilar. Bu yoshda bolalarning nutqi to‘liq va aniq tushunarli bo‘ladi. Shu bilan birga, savollar berishni boshlaydilar. Birgalikda kitoblar o‘qishni, rasmlarga ishora qilib, kitobdagi voqealar haqida suhbatlashishni uddalaydilar. 4-5 yoshli bolalarning nutqi tobora kattalar nutqiga o‘xshay boshlaydi. Bu yoshda bolalar o‘z tasavvurlarini tengdoshlariga va kattalarga aytishni yaxshi ko‘radilar. Ayniqsa,

bu yoshda ko‘p savol beradigan, sergap, mahmadona bo‘ladilar. 4 yoshli Omonboy nutqidan: – *Barakalla, azamat, sen juda esli bola ekansan, – deb moy hidi kelib turgan kattakon kafti bilan Omonboyning boshini silab qo‘ydi. Omonboy haqiqatdan ham azamat va haqiqatdan ham esli bola edi. Shuning uchun ham shosha-pisha: – Amaki, men-chi kechasi yotayotganimda kindigimga yog‘ surtib yotaman! – deb axborot berdi yana. – Mana buni chinakam qahramonlik desa bo‘ladi! – novcha amaki bu gal Omonboyning yelkasiga qoqib qo‘ydi, – suvni qayerdan ichasizlar? – Bog‘imizda hovuz bor, – negadir hovliqib dedi, Omonboy, – orqamdan yuravering... Undan keyin-chi, amaki men ovqat yeyishdan oldin qo‘limni yuvib kelaman. Voy-bo‘y, sen chindan ham ajoyib bola chiqib qolding -ku! – Undan keyin-chi, amaki, men ovqat yeganimda labimni chapillatmayman. – Ofarin O‘zbek oilalarining eng asosiy burchlaridan biri nutqiy odob-axloq va ta‘lim tarbiyaga jiddiy yondashishligidadir. O‘zbek oilalarida tarbiya jarayonida ota-onaning, ayniqsa, bobo-buvilarning o‘rni beqiyosdir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona”, degan maqolning o‘zidanoq o‘zbeklar uchun bolaning nutqiy tarbiyasi qanchalik muhimligini anglash mumkin. Bunga misol tariqasida biz ko‘chada, o‘yingohlarda, xiyobonlarda do‘stlari bilan o‘ynayotgan yosh bolalarni yoki o‘smirlarni bir-birlari bilan nutqiy muloqotiga vulgar so‘zlarni qo‘llagan holatlarida, yoshi ulug‘ insonlar tomonidan ularga tanbeh berish, nasihat qilish orqali yoshlarning nutqini tartibga solishga urinishlarini bevosita guvohi bo‘lamiz.*

Bolalarning go‘zal hulqli, didli farosatli, bilimli, zukko, jamiyatning har sohasida yetuk mutaxassis bo‘lib kamol topishida ota-onaning o‘rni beqiyosdir. Zero, xalqimizning taniqli ma‘rifatparvar adibi Abdulla Avloniyning “*Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir*”, deb aytgan so‘zlari naqadar haqiqatdir.

Buyuk vatandoshimiz Imom G‘azzoliy farzand tarbiyasi borasida bunday deydi:

*“Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqsh-u tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallim-u ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”.*

Oiladagi ota-onalarning muomala madaniyati, nutqi, so‘zlashuv uslubi bevosita

farzandining nutqiga ta'sir qilmasdan qo'ymaydi. Ota-bobolarimiz "*Qush uyasida ko'rganini qiladi*", deb bejiz aytmagan. Chunki bola tabiatidan ma'lumki, ular taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladilar. Agar farzandlar sog'lom yoki nosog'lom muhitda tarbiyalansa, bu holat ularning nutqida, xatti-harakatida va tengdoshlari, o'zidan kattalar bilan muloqot jarayonida seziladi. O'zbek oilalaridagi farzandlarning nutqiy tarbiyasi borasida yana bir muhim jihat shundan iboratki, ona-onalardan tashqari, bobo-buvilarning ham o'rni beqiyosdir. Ijtimoiy hayotimizdagi bolalarning so'zlashuv jarayonini kuzatsak, oilada yoshi ulug' insonlar tarbiyalagan farzandlarning nutqi, yosh ota-onalar tarbiyalayotgan bolalarning nutqidan ajralib turadi. Azal azaldan ota-onalar o'z farzandlarini har taraflama tarbiyasini, jumladan nutqiy tarbiyasini ham ularning bobo buvilariga ishonib topshirganlar. Yoshi ulug' insonlar nabira, chevaralarining go'zal hulqli, xushmuomala, odobli bo'lib ulg'ayishlarida o'zlarining pand nasihatlarini berib kelishmoqda. Ota-onalar va tarbiyachilar, murabbiylar bolalar bilan o'zaro aloqada bo'lganlarida, ularni nutqini to'g'ri shakllantirishga yodam berishlari, so'zlarni to'g'ri talaffuziga e'tiborli bo'lishlari va har bir savollariga erinmasdan javob berishlari kerak. Bizga ma'lumki, chaqaloqlarning birinchi aloqa vositasi bu – yig'lash. Bunga javoban ota-onalar va murabbiylar bolani ko'taradilar, unga gapiradilar, erkalatadilar, ovqatlantirish orqali ularni tinchlantiradilar. Biz chaqaloqlarni yig'lashdan tashqari, tana harakati, qo'l mimikalari va imo-ishoralar bilan ham muloqotga kirishgan jarayonlarini ko'rishimiz mumkin. Nutq tovushlarini o'stirish uchun chaqaloqlarga o'yinchog'ini ko'rsatib, uning nomini to'liq aytish kerak, garchi ular gapira olmasalar-da, o'yinchoqning nomi ularning xotirasida qoladi. Masalan, o'g'il bolalar uchun mashinani ko'rsatib, "didik" emas, mashina, deb aytish kerak. Qizlar uchun o'zbek milliy ertak qahramonlaridan bo'lgan Zumrad qo'g'irchoqni ko'rsatib, nomini to'liq aytish kerak (qizlar ulg'aygan sari, bir ikki so'zlarni qo'shib aytib borilsa nutqi tezroq shakllana boradi (*Zumrad odobli qiz, Zumrad aqlli, chaqqon qiz*). Bu ham bolalar milliy nutqini rivojlantirishda bir usulidir. Bolalar taqlid va o'rnak orqali tilni tez o'rganadilar. Ular bilan suhbatlashish (ertak aytish) jarayonida qisqa va sodda so'z-gaplardan foydalansak, nutqimizda turli xil so'zlarni qo'llasak (Zumradni tasvirlashda tasniflovchi so'zni turli ko'rinishda aytishimiz mumkin: *chiroyli, aqlli, odobli*. Kiyimlarini tasvirlashda: *do'ppisi bor, atlas ko'ylagi yarashgan, sochlari uzun*) maqsadga muvofiq bo'ladi. Ijtimoiy va madaniy jihatdan har xil oilalardan maktabga kelgan bolalar bir-birlari va o'qituvchilar bilan aloqaga kirishish yoxud tildan foydalanish mobaynida muloqot qilish qobiliyatini namoyon qiladilar. Shuningdek, bu bosqichda faol so'z boyligi, izchil gapirish qobiliyati va nutqni aloqa sharoitlariga moslashtirishga to'g'ri keladi. O'quvchilarning nutqiy muloqoti o'rtasidagi bu farqlar maktabda ta'lim olish jarayonida kuzatiladi. Biz bolalarning muloqotini kuzatish natijasida ularning jamiyatning qaysi ijtimoiy guruhiga tegishli ekanligini anglab olamiz.<sup>4</sup>

Har qanday madaniyat bolalarga tilni yetkazishda muvaffaqiyatli bo'ladi va ota onalar farzandiga uni o'zlashtirishini osonlashtirish uchun ko'plab usullarni qo'llaydilar. Ayrim bolalar kamgap bo'lganliklari uchun fikrlarini aniq aytishga qiynaladilar, bunday holda ota-onalar farzandlari nomidan nutq so'zlaydilar, ularning ehtiyojlari va istaklarini bildiradilar, ularning harakatlariga to'g'ridan-to'g'ri ona tilida izoh beradilar. Bolaning nutqi, asosan, ma'lumot almashish jarayonida kattalar bilan kundalik muloqot orqali rivojlanib boradi.

Bola og'zaki nutqida uning odobi, bilimi, xulq-atvori aks etadi. O'zbek oilalarning, asosan, ota-onalarning vazifasi farzandlariga bolaligini juda erta yoshdan boshlab aqliy ravonlikda barkamol rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Ota-onalar bolaga nutqini aniq, mazmunli, fikrini chiroyli ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishda asosiy shaxs hisoblanadilar, ular

---

<sup>4</sup> inLIBRARY

farzandlarining kelajakda xalq oldida gapirishdan cho‘chimaydigan va o‘z fikrlarini tinglovchilar ongiga ta‘sir eta oladigan darajada notiq bo‘lib yetishishlarida muhim qadamni qo‘yuvchilardir. O‘zbek oilalarida farzandning nutqiy tarbiyasiga azaldan jiddiy ahamiyat bilan yondashilganini Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi bosh qahramon Otabekning ota-onasiga bergan javobidan ham bilsak bo‘ladi.

– *O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...*

*Otabek ma‘lumki, ularning “qilib qo‘ygan yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini”*

*albatta bilar edi. Shundoq ham bo‘lsa bilmaganga soldi:*

– *Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma‘qul bo‘lmas, – dedi .<sup>5</sup>*

Romandagi Otabek yoshligidan ziyoli oilada o‘‘sib kamol topgani, o‘z davrining bilimli, ziyoli insonlari bilan ko‘p muloqotda bo‘lgani, fikr-mulohazali, dunyoqarashining kengligi uning ota-onasi bilan bo‘lgan nutqiy odobida ham namoyon bo‘lgan.<sup>6</sup>

Psixolog olim G.G‘oziyev, nutq faoliyatini fiziologik va psixologik mexanizmlarga ajratdi. G‘oziyev nutq faoliyatini fiziologik jihatdan talqin qilishda bir necha olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda quydagi to‘xtamga keldi: “nutq oddiy reflektor faoliyat qonunlari asosida idrok qilinadi, Pavlovning “nutqning yuzaga kelishi va idrok qilinishida inson (signallar signali) tarzidagi so‘zlaridan foydalaniladi. Mazkur jarayon bosh miya katta yarim sharlarining po‘stida amalga oshadi”, degan fikrini keltirdi. U Broko (1861- 278yil)ning miya postining ma‘lum qismi (miya chap yarim sharlari peshona qismining pastki tomonidagi burmalarning orqa qismi) shikastlansa bemorlarda nutq artikulyatsiyasi buzilishini aniqladi va “so‘z obrazlarini harakatlantiruvchi markaz”, degan fikrini keltirdi. Psixologik jihatdan esa olim quydagi to‘xtamga keldi: “nutqning muayyan asoslariga suyangan holda no‘‘anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi. (Nutq og‘zaki va yozma (verbal va noverbal) turkumga ajratiladi)”. .

Bugungi kunga kelib, bolalar nutqini o‘rganish, ko‘p qirrali ilmiy ma‘lumotlarning zarurligi, har tomonlama va tushuntirishli nazariy asoslarni yaratishning muhimligi va go‘daklar hamda yosh bolalar bilan tajriba o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan innovatsion uslubiy protseduralar tufayli qiyinlashmokka. Tadqiqotlar nutqning ontogenetik yo‘lini boshqaradigan asab, motorik, sezgi, bilim, anatomik, lingvistik, hissiy va ijtimoiy parametrlarning hissasini yoritishga harakat qiladi.

Noam Xomskiy tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiya bir guruh olimlar:

tilshunoslar, funksionalistlar, kognitiv lingvistlar, psixolingvistlar, sotsiolingvistlar

tomonidan rad etildi. Xomskiyning fikricha, til kompetensiyasiga ona tilida

so‘zlashuvchilarda ega bo‘lgan lingvistik bilimlar tizimi sifatida qaralganligi bois, lingvistik ko‘rsatkichlardan ajralib turadi va grammatik jihatdan ahamiyatsiz shartlar ta‘sir qilmaydi, deb ta‘rif bergan edi. Boshlang‘ich sinf (3-4sinf) yoshidagi bolalarning muloqot qobiliyatlarini o‘rganish ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishning hozirgi bosqichida eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Namlari aytib o‘tilgan olimlarning ishlarini o‘rganish natijasida, til va uning hosilasi bo‘lgan nutq kishilik jamiyatining muhim aloqa vositalaridan biri ekanligini angladik.

Noqulay sharoitlar bolalar nutqini rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada bunday

bola tengdoshlari bilan yomon aloqada bo‘ladi, boshqa kattalarni xavf manbayi deb biladi, o‘qishni yoqtirmaydi va o‘rganishga qiziqish bildirmaydi. Hozirgi vaqtda shahar markazlarida yashovchi aksariyat ota-onalar farzandining odob-ahloqiga, ta‘lim-tarbiyasiga qishloqdagi ota-onalarchalik e‘tiborli bo‘lmaydilar, natijada bu e‘tiborsizlik ularning xatti-harakatida, ayniqsa, nutqida yaqqol

<sup>5</sup> Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar (roman). – Toshkent: 2016, 71-b

namoyon bo'ladi. O'z farzandlarining ehtiyojlariga unchalik qiziqmaydigan shahar ota-onalari farzandlari tomonidan til madaniyatini sindirish, ayrim so'zlarni neologizmlar bilan ishlatishiga sharoit yaratadilar. Ota-onadan bolaga e'tibor yetishmasligi va ularning salbiy nutq faoliyati bola rivojlanishiga, nutqiga, ayniqsa,

fikrlash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin emas. Birinchidan, bu vaziyatda boladagi taqlid mexanizmi ishlaydi, ota-onalarning nutqida ishlatiladigan so'zlarni, nutq bola ongsiz ravishda qabul qiladi. Ikkinchidan, nizoli vaziyatlarda ota-onalarning stereotipli, tezlashtirilgan nutq darajasi, so'zlardagi ohanglarning baland-pastligini eshitgani bo'yicha qabul qiladilar.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ota-onalar e'tiborini farzandlarining nutqlariga qaratmoqchimiz, chunki bola bilan asta-sekin muloqotga kirishish kerak, barcha so'zlarni aniq talaffuz qilib, ularni ohang bilan bir-biridan ajratib talaffuz qilish bolalarining og'zaki nutqini to'g'ri shakllanishiga zamin yaratadilar. Shuni ta'kidlash kerakki, bolalar tomonidan kattalarning nutqini idrok etishni faqat passiv jarayon deb xisoblash mumkin, chunki nutqni tinglayotgan bola, aytilganlarning mazmunini tushunishi, qabul qilingan nutq ma'lumotlarini aniq tushunishi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar (roman). – Toshkent: 2016, 71-b
2. Abdulla Avloniy. Toshkent tongi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1979, 246-b.
3. 2793. E.G'oziyev. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi" Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 309 b.
4. Chomsky, Noam. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press
5. Н.Н.Романова, А.В.Филиппов Словарь. Культура речевого общения: этика, прагматика, психология. – Москва, 2010.
6. А.Леонтьев. Язык, речь, речевая деятельность. – Москва: Просвещение, 1969. – 214 с.
7. Xudoyberdi To'xtaboyev. Peshonasiga televizor yopishtirib olgan bolaning sarguzashtlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi. Ikkinchi nashr. 2019
8. Ziyouz.uz
9. muslim.uz
10. Ashurov, Shahobiddin Saidovich. "Инглиз ва ўзбек тилларидаги интернационал мақоллар таржимасидаги ассиметрик ҳолатлар." Молодой ученый 18 (2020)
11. Ayupova M.Y. mLogopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
12. Logopediya (L. Mo'minova, M. Ayupova). — T., 1993.
13. Логопедия (под. ред. Л.С. Волковой). - М., 2002.
14. Логопедия (Л. Муминова., М. Аюпова). — Т., 1993.
15. Shomaxmudova R. Sh. Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. — T., 1994.

16. Ya. M o 'minova, M. Qahramonova. Logopediya terminallarining ruscha'zbekcha izohli lug'ati. - T., " O 'qituvchi", 1988. Nutq mahorati terminiga o'nlab yetuk olimlar tomonidan ko'plab ta'riflar berilgan.